

## DIDAKTIK O'YINLI MASHG'ULOTLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Nomozova Mohinur To'lqin qiz*

*mohinurnomozova@gmail.com*

*JDPU 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Didaktik o'yinli mashg'ulotlarning o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar ahamiyati.

**Kalit so'zlar.** Didaktika, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, ijodiy o'yinlar.

O'qituvchi-pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi:

1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;
3. Barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;
5. Mashg'ulotlar davomida didaktik printsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida **konferentsiya mashg'ulotlari** ham muhim o'rin tutadi.

Konferentsiya mashg'ulotlari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda, ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan tanishtirishda, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Konferentsiya mashg'ulotini o'tishdan avval mashg'ulot mavzusini, maqsad va vazifalarini belgilab, shu mavzuga oid qo'shimcha ilmiy, ilmiy-ommabop adabiyotlar ko'zdan kechiriladi. Mashg'ulotni o'tkazishdan 1 hafta oldin mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, unga tayyorgarlik ko'rish uchun adabiyotlar tavsiya etiladi. Ushbu mashg'ulotda «Olimlar» rolini tanlash, mavzuni har tomonlama yoritish, ma'ruza tayyorlash o'quvchilarning ixtiyorida bo'ladi.

O'quvchilarning ijodiy izlanishi, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va qo'shimcha bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda ijodiy o'yinlar muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchlar o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini ijodiy qo'llanish va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlar **ijodiy o'yinlar** deb ataladi.

Ijodiy o'yinli mashg'ulotlardan «Geomertiya» fanini o'qitishda va «Pifagor teoremasi» mavzusini o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda o'quvchlar teng sonli guruhlarga ajratiladi. Bu yerda har qaysi guruhi ijodiy izlanib, kelgusidagi ishlarini rejalashtirishga o'rganadilar. O'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan topshiriqlarni bajarib, dalil va isbotlar asosida o'z javoblarini bildiradilar.

Ijodiy o'yin mashg'ulotlarida guruhdagi barcha o'quvchlar hamkorlikda ishlaydilar, avvalgi mashg'ulotlarda o'zlashtirgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llaydilar. Bu esa ularda o'z bilim va iqtidoriga nisbatan ishonch hissini uyg'otadi.

Shunday qilib, didaktik o'yinli mashg'ulotlar orqali o'quvchi-o'quvchlar yangi kasblar bilan tanishadilar, egallagan bilimlarini iqtisodiyotning qaysi sohalarida qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar, ushbu fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil foydalanishga, o'z o'rtog'ining fikrini sabot va chidam bilan tinglashga, bilimlarini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga o'rganadilar.

O'quvchilar o'zaro bir-birlariga yordam berishga, boshqalarning qiziqishlariga hamohang o'z manfaatlarining ular bilan uyg'un bo'lishiga harakat

kiladilar. Ularda o'yin davomida olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash hamda ulardan turli vaziyatlarda foydalanish ko'nikmalari paydo bo'ladi.

O'yin faoliyati yaxshi xislatlarni hosil qilish asosida, jamoaviy hayotiy faoliyatni vujudga keltiradi, mustaqillikni, boshqalarni mehnat sharoitida qo'llab-quvvatlashga o'rgatadi.

O'yin faoliyatini tashkillashtirish o'quvchilarning akliy faoliyatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish asosida ishchanlikka, topqirlikka, o'z vazifasiga mas'uliyatli yondashib, yangi-yangi natijalarni qo'lga kiritishlariga sabab bo'ladi. O'yin ta'lim jarayonini tashkil etish hamda olib borishda 29 pedagogic vositadir. O'yin bolalar uchun biror narsani bilib oluvchi vositadir. Ta'lim mazmunini o'quvchilarga o'yin orqali tushuntirish bu tushuntirishning eng qulay va samarali usulidir. Shu sababli, o'yin vositasida ta'lim jarayonini tashkil etish voqea-hodisa, mazmunni tushunish, o'rganish, o'zlashtirishni kafolatlaydi.

Nemis psixolog olimi K.Kross o'yin vositasida bola o'zini tutish, olamni o'rganish, analarni bilish, atrof-muhitga moslashish ko'nikmasini shakllantiradi, degan edi.

Ko'pgina olimlarning fikricha, ijtimoiy faoliyatning rivojida ayrim tajribalarning orttirilishi shaxsning o'z-o'zini axlokiy rivojlantirishiga, o'zini-o'zi boshqarishiga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. A. Parmanov, "Tasvirli masalalarni yechishning tasvirni to'ldirish usuli", JSPI Ilmiy nashrlar arxivi, 2020
2. A.A'zamov, B.Haydarov, E.Sariqov, A.Qo'chqorov, U.Sag'diyev "Geometriya" 7- sinf darsligi, Toshkent, 2017
3. Turdiboyev, s. S. O. G. L. (2021). Geometrik masalalarni tuzishga o'rgatish vositasida o'quvchilarning konstruksiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish. *Scientific progress*, 2(2), 711-719.
4. S.S.Turdiboyev "Geometriya fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining o'rni" Ta'limda axborot texnologiyalari, Jizzax, 2021.